

KUNJUT HOSILINI YANCHIB OLIISH QURILMASINING TAJRIBA NUSXASINI TAYYORLASH

Sherov Dilmurod Xamra o'g'li

QXMITI. Tel.: +99899 965 17 13

e-mail: dilmurodsherov231097@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15254771>

Import o'rnini bosadigan eksportbop mahsulot yaratish uchun kunjut yanchish qurilmacining detallari va yig'ma qismlari maksimal unifikatsiyalashgan bo'lishi va ularni mahalliy xom-ashyolardan tayyorlash, konstruksiyasini sodda va texnologik qulay ishlab chiqish taklif etilgan; Yanchish barabani parametrlari yanchilish to'liqligi, ortiqcha mexanik ta'sir natijasida donning shikastlanmasligi, o'simlik massasining barabanda tiqilib qolmasligi va donli aralashmaning elakka uzatilish to'liqligiga bog'liq ravishda asoslangan.

Изготовление опытного образца установки для обмолота кунжута

Для создания экспортной продукции, замещающей импорт, предлагается, чтобы детали и сборочные части устройства для измельчения кунжута были максимально унифицированы и изготавливались из местного сырья, а конструкция была простой и технологичной; Обоснованы параметры молотилного барабана в зависимости от полноты обмолота, отсутствии повреждения зерна вследствие чрезмерного механического воздействия и застревания растительной массы в барабане, полноты передачи зерновой смеси на решета.

Production of a prototype of a device for threshing sesame crops


For creation of export production substituting import, it is offered that details and assembly parts of the device for sesame grinding were maximally unified and made of local cheese, and the design was simple and technological; Parameters of threshing drum depending on completeness of threshing, absence of damage of grain due to excessive mechanical impact and jamming of vegetal mass in the drum, completeness of transfer of grain mixture on the grids are substantiated.

Kunjut yanchish qurilmasi quyidagi tarkibiy qismlar bilan ishlab chiqilgan: asosiy rama burchak shaklidagi past uglerodli po'latdan yasalgan bo'lib, u yuklash novi, yanchish barabani, ventilator, elaklar va elektr dvigateli kabi qurilmaning turli qismlarini ushlab turadi. Yanchish barabanining bir uchiga qiya yuklash novi o'rnatilgan. Yanchish apparati pichoq, yanchuvchi barmoqlar va parraklar bilan jihozlangan. Diametri 500 mm va umumiy uzunligi 1290 mm bo'lgan yanchish barabani vali podshipniklar yordamida qurilmaning asosiy ramasiga o'rnatilgan va diametri 300 mm bo'lgan shkiv va ponasimon tasma orqali elektr dvigatelidan quvvat oladi. Yanchish barabani oxirida o'rnatilgan parraklar maydalangan poyalarni chiqarib tashlashga xizmat qiladi. Tozalash tizimi kunjut urug'ini qipiq va aralashmalardan ajratish uchun teshiklari (mos ravishda 5 mm va 3 mm) bo'lgan ikki qatlamli elaklardan iborat. U shkiv valiga ilgarilanma-qaytma harakat beradigan tirsak (ekssentrik) orqali ulangan. 2.2 kVt kuchga ega elektr dvigateli qulay tarzda o'rnatilgan bo'lib, tasmani taranglash uchun uni oldinga yoki orqaga siljitish imkoniyati mavjud.

Yanchish qurilmasining spesifikatsiyasi

Ko'rsatkich nomi	Qiymati	Ko'rsatkich nomi	Qiymati
Umumiy uzunligi, mm	2150	Baraban turi	Tangensial barmoqli
Umumiy eni, mm	1650	Baraban umumiy uzunligi, mm	1290
Umumiy balandligi, mm	1150	Baraban diametri, mm	500
Umumiy og'irligi, kg	350	Barmoqlar soni, dona	8
Dvigatel turi	El.dvigatel	Baraban va elak tezligi nisbati	1:1
Dvigatel quvvati, kVt	2,2		

1-rasm. Yanchish qurilmasining konstruktiv o'lchamlari



2-rasm. Yanchish qurilmasi tajriba nusxasining ko'rinishi

Yanchish barabani va ventilatorning aylanish tezligini o'zgartirish baraban va ventilator valiga har xil diametrdagi shkiylarni o'rnatish orqali amalga oshirildi. Elak uzatmasi bevosita

yanchish barabani validan olinadi va uning tebranishlar chastotasi baraban tezligiga mos ravishda o'zgarishi ko'zda tutilgan.

1 va 2-rasmlarda mos ravishda qurilmaning konstruktiv o'lchamlari va fotosurati ko'rsatilgan.

Xulosa

Ishlab chiqiladigan kunjut hosilini yanchib olish qurilmacini yaratishda uning konstruksiyasining mumkin qadar sodda va texnologik jihatdan qulay bo'lishi, detallari va yig'ma qismlarini mahalliy xom-ashyolardan tayyorlanishi import o'rnini bosadigan eksportbop mahsulot yaratishga imkon beradi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ravshanov Sh.U., Sherov D., Bozorboev A. Kunjut hosilini yig'ishtirishning mexanizasiyalash muammolari. Yuqori samarali qishloq xo'jalik mas'hinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovasion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi. – Gulbahor, 2023. – B. 225-228.
2. Ravshanov Sh.U., Sherov D., Bozorboev A. Dunyoda kunjut yetishtirish dinamikasining taxlili. Yuqori samarali qishloq xo'jalik mas'hinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovasion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi. – Gulbahor, 2023. – B. 233-238.
3. Sherov D. Kunjut hosilini yig'ishtirishda don nobudgarchiligini kamaytirish yo'llari. Yuqori samarali qishloq xo'jalik mas'hinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini shirishning innovasion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi. – Gulbahor, 2024. – B. 310-314.
4. Ravshanov Sh.U., Sherov D.X., Choriyeva D.N., Kunjut hosilini yanchib olish qurilmasi konstruksiyasini loyihalash asoslari. Yuqori samarali qishloq xo'jalik mas'hinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovasion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi. – Gulbahor, 2024. – B. 322-327.
5. Ravshanov Sh.U., Sherov D., Kunjut hosilini yanchib olish qurilmasi don tozalash tizimi parametrlarini asoslash. O'zbekiston agrar fani xabarnomasi: Ilmiy-amaliy jurnal. – Toshkent, 2024. – B. 194-197.
6. Ravshanov Sh.U., Sherov D., Kunjut hosilini yanchib olish qurilmasinig parametrlarini maqbullashtirish. Qishloq xo'jaligida innavatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Toshkent, 2024. – B. 138-142.